

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

“FURQAT “HAJNOMA”SINING YARATILISH ASOSLARI ”

“Fundamentals of creation of Furqat "Hajnoma"”

Dilfuza Avazova,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada Zokirjon Furqatning xorijiy mamlakatlarga safari va safar mobaynida yozilgan “Hajnoma” asari yaratilishining ijtimoiy-ma’rifiy hamda badiiy-estetik asoslari tahlil etilgan.

Annotation

This article examines Zakirjon Furqat's trip to foreign countries and the social-educational and artistic-aesthetic foundations of the creation of the work "Hajnoma" written during this trip.

Kalit so‘zlar: Ka’ba, ziyorat, imon, ijodiy niyat, an’ana, yangilik, ma’rifiy mazmun, poetik tasvir, badiiy talqin.

Keywords: Ka’ba, pilgrimage, faith, creative, intention, tradition news, enlightenment content, poetic image, artistic interpretation.

Badiiy adabiyot ma’lum bir ehtiyoj hosilasi. U shoir qalb kechinmalari orqali yaralar ekan, har bir asar ijodkorning hayotiy hodisalarga munosabati o‘laroq shakllanadi. Shunga ko‘ra badiiy asar yaratilishining minglab qirralari bir necha ulkan sabablarga kelib tutashadi:

Eng birinchi asos ijtimoiy omildir. Ijodkor jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lgani holda, o‘z ijodini ham hech qachon jamiyatdan to‘laqonli uzib olib yarata olmaydi. Jamiyatdagi har bir hodisa adibning qalb prizmasidan o‘tgani holda, shaffof shaklda uning shuurida akslanadi. Muallifni ta’sirlantirgan, qalbiga iztirob bergan, ba’zi o‘rinlarda qalbini sevinchga to‘ldirgan ma’lum bir voqelik chinakam iste’dod natijasi o‘laroq badiiy asarga aylanadi.

Ikkinchi muhim omil estetik ehtiyojdir. Har bir inson borki, hayotdan nimadir



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

izlab yashaydi, go‘zallikka talpinadi, ko‘zyosh to‘kadi, sevinadi, sevadi va seviladi. She‘riyatdan esa inson jamiki estetik ehtiyojlarini topa olgani singari, she‘rda muallif estetik ehtiyojlarini ham ifoda etadi va shu jihatga ko‘ra insonlar har bir zamonlarda san‘atga, xususan, she‘riyatga talpinadilar, ehtiyoj sezaveradilar.

Uchinchi jihat esa butun jamiyatning ma‘rifatga talpinishida akslanadi.

Axloq, ma‘naviyat butun insoniy tamaddunning asosi, kelajakda ham insoniyatning axloqli jamiyat sifatida saqlanib qolishiga yordam beruvchi omildir. Bugungi kunda adabiyot va uning vazifasiga munosabat o‘zgarib borayotgan, adabiyot hatto chirkin tuyg‘ularni ham bemalol ayta olish maydoniga aylantirilayotgan bir vaziyatda Furqat va Oripov lirikasi tashiyotgan mohiyat, ularning yaralish sabablari adabiyotshunoslikning eng birinchi manbasiga aylantirilishi lozimdir.

Ayni shu omillar ikki ijodkorning umumiy mazmun va xarakterga ega bo‘lgan asarlari mohiyatini ochib beradi, ularning yuksak badiiyatini tahlil qilish asnosida muhim adabiy funksiya bajaradi. Ayniqsa, diniy, axloqiy xarakterdagi badiiy asarlarning nafaqat ijtimoiy, qolaversa, umumbashariy ahamiyati katta bo‘lishi jihatidan Furqat va Abdulla Oripovning Haj tasviri bilan bog‘liq asarlaridagi mohiyatni anglash va anglatish har bir davr uchun muhim estetik manba vazifasini o‘tay oladi.

Bilamizki, Furqat ijodi she‘riyat mumtoz adabiyot qoidalaridan tamom uzilib ulgurmagan bir holatda yaralgan edi. Mumtoz adabiyotning manbasi esa o‘z-o‘zidan Qur‘oni Karim va hadislardir. Ularning asl mohiyati, mazmuni adabiyotga zeb, ko‘ngillarga taskin bergani holda, asrlardan asrlarga o‘tib yirik adabiy manba vazifasini bajardi. Qolaversa, uning qalbidagi mumtoz adabiyot vakillari ijodiga muhabbat, ziyolilar bilan bo‘lgan adabiy suhbatlarga ishtiyoq uning diniy-tasavvufiy bilimlarining ham kuchayishiga sabab bo‘ldi. Zero, “Furqat nazmda hayot falsafasini bir necha xil talqinga asos beradigan darajada teran ifodalashni Sharq mumtoz she‘riyatidan, xususan, Mirzo Abdulqodir Bedil asarlari mutolaasi jarayonida o‘rgangan, deyish mumkin. Shoirning adabiy davrasi, xususan, Sharifxo‘ja qozi bilan muloqotlari bunda, ayniqsa, alohida o‘rin tutgan”¹ [Yusupov, 1990:67-68]

¹ Юсупов Ш. Фуркат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи: фил.фан. док. дис-яси. -Т 1990. – Б.67-68



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Shu jihatdan ham Furqatning diniy - tasavvufiy bilimga ega bo'lganligi, "Hajnoma"ning yaralishi uchun muhim bir asos bo'lgan bo'lsa, bu asarning yuzaga kelishidagi ijtimoiy sabablardan biri Furqatning bir necha mamlakatlarga safari va ayni safarlar sabab shoir ko'nglini ezayotgan Vatan so'ginchi tuyg'usi edi. Abdulla Oripov: "Ehtiyojsiz she'r yozilmaydi"² [Oripov, T.B:123] , deb yozadi. Chindanda, Furqatda Vatandan ayrolik yillarida she'riyatga nihoyat darajada katta ehtiyoj bor edi. Furqat qalbidagi sog'inch, ayriliq, umid kabi tuyg'ular uning lirikasida yaqqol aks eta boshladi. Jumladan, do'sti Toshboltu Roiqqa maktub yozar ekan, unda o'zining Vatan bilan bog'liq og'riqlarini, sog'inchini aks ettiradi. Shoirning doimiy tarzda vatanga qaytish istagi, orzusi hamisha u bilan birga, qalbida yashashda davom etaveradi:

Vatanning ishtiyoqin tortaram g'urbat g'ami birla,

Turubdurman qutulmay g'ussau ranju inolardin ³[Furqat, 1991:108].

Vatan sog'inchida g'am ichra qolgan shoir, istasada, bu ayriliq g'ussasidan, firog'idan qutula olmay ranj-u inolar ichra qolganini yozar ekan, ayni shu holat shoirning Haj bo'ylab safarga o'tlanishiga bo'lgan muhim sabablardan biri bo'lganligini anglash mumkin. Furqat Ostroumovga yozgan maktubida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Ko'blardan salom aytib yozamankim, marhamat qilib yuborgan xatingiz Istanbulda menga tegib, ko'b xursand bo'ldum. Ul kunlarda Istanbuldan chiqib, Yunon shahriga bordum. Andin Iskandariyaga borub, necha kun tamosho qilib, Andin Misr viloyatiga borib, anda ham necha kun tamosho qildim. Andin chiqib yigirma beshinchi mohi rajabda Jaddai muborakka dohil bo'lib, uch-to'rt kun turub, Makkai mukarramaga chiqub ketdim. Endi xohlayankim, Haj qilg'ondan keyin Bombayg'a o'tub, Kalkutttag'acha borub va g'ayri Hinduston mamlakatlarini sayohat qilib, andin so'ngra Toshkentg'a borsam deb"⁴[Yusupov, 1984:159].

Ko'rinib turibdiki, shoir qayerga bormasin, asosiy maqsadlaridan biri o'z yurtiga qaytish istagi bo'lgan. Qaysidir ma'noda Furqatning Haj safari mobaynida qalbidagi

² Oripov A. Ehtiyoj farzandi. T. B.123

³ Зокиржон Фуқрат. Асарлар мажмуаси (Араб имлосида). Икки жилдлик. II жилд, Т.: Қўлёзмалар институти, 1991, Б .108

⁴ Yusupov Sh. Furqat yo'llarida. T.G'afur G'ulom. 1984. B.159



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

eng katta niyat va duolaridan biri o'z yurti bag'riga qaytish, yaqinlar diydoriga yetishish desak xato bo'lmaydi. Zero, vatandan ayrolik hissi nihoyatda og'ir. Bu holat hassos qalb sohibini yanada ta'sirchan bir insonga aylantirishi, unga azob berishi tabiiydir. Vatanda olisda har kun shoirning iztirobini oshirgan, Vatandan boshqa joy uning uchun qafasga aylanganligiga hech ikkilanmay ishonish mumkin: Paru bolim to'kuldi, maskanim oxir qafas bo'ldi,

Muhabbat yo'lida, Furqat, Vatandin ayrilib qoldim ⁵ [Furqat,1991:141].

Aslida, musofirlikning har bir kuni bir azob. Ayniqsa, hissiyot odami bo'lgan ijodkor ko'ngliga bu holat boshqalardagiga qaraganda ta'sirliroq kechadi. Shoir ruhi shunchalik charchagan, shunchalik iztirob ichidaki, ularning barchasidan bir lahzada forig' bo'lishni, qutulishni istaydi muallif qalbi. "Hajnoma"dagi ayrim misralarda ayni shu tushkun ruh, iztirob aks etadi, bu maskanga shoir qalbi halovat, xotirjamlik, taskin, bir hamdard izlab kelgani seziladi. Ollohga yaqinlashish istagi, ummatlik niyati barcha darddan forig' bo'lib, bu bevafo dunyodan ham kechish istagini uyg'otadi:

Tilarmankim berib barham o'zumni,

Jahon tashvishidin bir yo'l qutulsam.

"Hajnoma"ning yaralishiga sabab bo'lgan bu kabi ijtimoiy omillar bilan bir qatorda, yana bir muhim ma'rifiy jihat borki, bu ham bo'lsa, har bir mo'min qalbidagi orzudir. Payg'ambarimizning har bir ummati bu muqaddas dargohga qadam qo'yishning o'ziniyoq ulkan mukofot va savobli bir amal deb biladi. Bu dargohga borib qalbiga taskin berishni, ruhiga bir halovat yetishini istaydi. Haj ziyoratini nafaqat Furqat, har bir musulmon orzu qiladi:

Na man tanho, kimiki ummatidur,

Qilur doim tamannoi Madina.

Furqat qalbida ham ayni shu maqsad, orzu bo'lishi tabiiy holdir. Buni asarning o'n birinchi tarji'sida muallif ham alohida ta'kidlab o'tgani fikrlarimizda jon borligini ko'rsatib beradi:

Tushub boshimg'a savdoi Madina,

Edim bir umr shaydoi Madina.

⁵ Зокиржон Фуқрат. Асарлар мажмуаси (Араб имлосида). Икки жилдлик. II жилд, Т.: Қўлёзмалар институти, 1991, 141-бет.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Anglangani kabi Furqat qalbida Hajga borish orzusi faqat musofirlik vaqtidagina yuzaga kelmadi. To'g'ri, uning Toshkentdan chiqib ketish asnosidagi sayohatlari Haj ziyoratining sabablaridan biridir. Ammo chinakam mo'minlik istagi shoir qalbida azaldan mavjud edi. Zero, u bir umr Madinaning shaydosi bo'lganini o'zi alohida ta'kidlaydi. Bu kabi niyat uning qalbida yashaganini Makkai mukarramada yozilgan ayni misralar ham aks ettiradi:

Nasib et Ka'ba tavfin ro'z aylab ravzai hazrat,
Turarg'a qolmadi toqat, sanga bu iltijo, yo Rab.

Haram ichra kirib, ro'yi siyohim erlara surtub,
G'uborin chashmi mushtoqing'a qilsam to'tiyo, yo Rab.

Shoirning bu kabi munajatlarida uning qalbida yashagan, kezi kelsa birov bilan bo'lisha olmagan orzu-istaklari aks etadi. Bu kabi ijtimoiy -marifiy sabablar, asoslar Furqatning Haj safari mohiyatini chuqurroq anglash, tushunish bilan bir qatorda "Hajnoma"ning badiiyati va asl mohiyatini ham teranroq ochib beradi, shoirning ijtimoiy-ma'rifiy maqsadini yanada yorqinroq ifodalab beradi.

Adabiy asar kuchi uning o'zida aks ettirgan adabiy -estetik mazmunida akslanadi. Bir tomondan adabiy-estetik ehtiyoj natijasi o'laroq ma'lum bir asar yuzaga keladi. Jamiyatdagi ayni shunday muhim estetik ehtiyoj iymon masalasi edi. Chor Rossiyasi Turkistonga kirib kelishi bilan ularning qo'llagan eng muhim siyosati aholini milliy ma'naviyatidan, ilm-fandan, din va iymon tushunchalaridan ayirish bo'ldi. Zero, bu vaqtga kelib, "Zaifalardin sharm-u hayo, ag'niyolardin judu saxo, bir-birga oshnodin mehru vafo yo'qolgan. Faqr ahlidan qanoat, shayxdan riyozat, so'fidan ibodat tobora barham o'lgan. Dono zalilu nodon aziz bo'lgan. Elning fe'l-u ho'yi ketib, guftugo'yi faqat shikoyat bo'lib qolgan. Shuning uchun ham el kuffor ahli ichra hayron bo'lib qolgan, na hukm qilsa darhol buyrug'ini olgan, olig'-solig' berib tolgan". Bu hol shoir qalbini tilmasligi, unga azob bermasligi mumkin emas edi. Millatning iymondan mahrum bo'layotgani, mutlaqo ilm-ma'rifatsiz kishilarning davlat lavozimlariga tayinlanishi, bu orqali millatning g'aflat uyqusida qolishi, o'z haququqlari uchun kurasha olmasligi nihoyatda ulkan fojia edi. Boisi hatto millat suyanishi mumkin bo'lgan, davlat amallarida o'tirgan kishilarning o'zi ma'naviy tanazzulga yuz tutgan, bosqinchi hokimiyat buyruqlarini tushunar-tushunmas so'zsiz ado etuvchi qo'g'irchoq edilar. Furqat o'zining bir qancha lirik asarlarida



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ayni shu masalaga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, uning "Bo'ldi" radifli muxammasida ayni shu fikrlarga duch kelamiz:

Har qayda sarfayog'lar qozishinos bo'ldi,

Barpo qilurg'a fitna bekamu kost bo'ldi,

El ichra qadr topti kim xushlibos bo'ldi,

Zoti bek o'tmaganlar sohibasos bo'ldi,

Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,

Ranjuru zoru mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Bu hol aslida millatning eng katta fojiasi bo'lib, bundan forig' bo'lishning yagona yo'li ilmga yuzlanish, eng asosiysi esa, hidoyatga, iymonga qaytish masalasi edi. Shoirning ayni istaklari, maqsadi "Hajnoma"da o'z aksini topdi deyish mumkin. Bu safar mobaynida aksariyat o'rinda shoir o'zini tahlil va tanqid qilgandek, o'ziga nasihat bergandek tuyilsada, aslida misralar zamirida umumiylik, har bir insonni o'yga toldirish, o'z gunoh-u savoblari haqida mulohaza yuritish kabi holat bor. Shoir nafaqat o'z holiga, balki butun millat holiga kuyunadi. Imom Buxoriy, Zamaxshariy avlodlarining asl ildizlarini unutmashligini, Muhammad a.v.s.ga chinakam ummat bo'lishini istaydi. Bu istak "Hajnoma"da yaqqol ko'zga tashlanadi:

Hamisha bo'lmasang payravlarida,

Muhammadga qani ummatlig' oting.

Haqiqatan, insonlar dindan tamomila uzoqlasha boshladilar. Keraksiz aysh-u ishrat, bekorchilik, choyxonalarda umr o'tkazish millatning kundalik yumushiga aylana boshladi. Ilm-ma'rifat tamomila chetga chiqa boshladi. Odamlar ziyo sari talpinmay qo'yidilar. Bu holat aslida millatning chinakam fojiasi edi. Bunday hayotda yashaydigan xalqning ertasi o'z-o'zidan yo'q bo'lishini millat oydinlari yaxshi anglar, his qilar edilar. O'z yurtining bu kabi taqdirga kuyinayotgan ziyolilar qatorida, shubhasiz, Furqat ham bor edi. Shu sabab ham "Hajnoma"ning yaralishiga sabab bo'lgan eng muhim adabiy-estetik sabablardan biri millatni iymonga qaytarish masalasi edi. Asar yaralishining zamiridagi eng katta maqsad ayni shu jarayonda ko'rinar ekan, shoir qaysidir ma'noda iymonni asrash, mo'minlik fazilatlarini qadrlash, Muhammad payg'ambarga ummat bo'lish saboqlarini nafaqat o'z zamoni, balki bugungi kun uchun ham bera oldi deyish mumkin. Asarning chinakam adabiy-estetik quvvati ham ayni shu holatda ko'rinadi, aslida.

"Hajnoma" tahlilida ahamiyat qaratish joiz bo'lgan jihatlardan biri Furqatning bu asarni yaratish jarayonidagi salohiyati, diniy bilimlarni puxta egallagani, hayot



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mashaqqatlarini totgan va ulardan xulosa chiqara olgan bir yoshga yetganida hamdir. Bu holat o‘z-o‘zidan asarning mukammalligiga sabab bo‘lgan muhim jihatlardan biri edi. Furqatning sakkiz yoshida “Mantiq-ut tayr”dek ulkan va nihoyatda badiiy salohiyati yuqori bir kitobni o‘qib tugatgani va hatto yod olgani, kichik yoshidanoq Qur’on o‘qish, uni yod olish salohiyatiga ega bo‘lgani, qolaversa to‘qqiz yoshida:

Mening maktab aro buldur murodim,

Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim

deya yoza olganini o‘ziyoq uning “Hajnoma” yaratishga qay darajada tayyorligini, ma’nan haqli ekanligini ko‘rsatib beradi.

“Hajnoma”ning adabiy - estetik quvvati uning o‘z davrigacha va undan oldinroq, hatto bugungi kunga qadar Haj tasviri, ziyorati umuman ayni shu safar yoritilgan yagona asar ekanligidadir. Juda ko‘plab ijodkorlar Haj ziyoratiga borishni niyat qilganlar va bu ziyoratga borganlar. Ammo Furqatgina ayni shu ulug‘ ziyoratni badiiy puxta, badiiy jozibador asar sifatida o‘zbek adabiyotiga olib kira oldi. Furqatgacha va hatto Furqatdan keyin ham Haj ziyoratiga borib, bu tarzda o‘ziga xos bo‘lgan diniy-falsafiy xarakterdagi asarni uchratish malol.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, “Hajnoma”ning adabiy-estetik jihatdan mukammalligi, uningbadiiy quvvati shoirning har tomonlama chuqur salohiyati, ilmi va olimligi, dunyo va o‘z adabiyotini mukammal darajada tushungani bilan ham bog‘liqdir. Zero, har qanday badiiy mukammallik eng avvalo, mukammal bilim va tajribani taqazo etadi. Furqatda ayni bilim va tajribaning uyg‘unligi, “Hajnoma”ni yaratgan paytda uning yosh tajribasi, hayotga munosabati asarning o‘z davri, qolaversa, barcha davrlar uchun yagona va betakror bo‘lishini ta’minlay oldi. Asar ijtimoiy jihatlarni o‘zida aks ettirsada, shaxsiy lirik kechinmalar ham unda o‘ziga xos tarzda akslanadi, umumbashariy masalalarni ham izchil tarzda o‘zida aks ettiradi.

Adabiyotlar

1. Yusupov Sh. Furqat va o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining yangi bosqichi: fil.fan.dok.dis-si.-T1990
2. Yusupov Sh. Furqat yo‘llarida. T.G’afur G’ulom. 1984
3. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. T. B.123
4. Zokirjon Furqat. Asarlar majmuasi (Arab imlosida). Ikki jildlik. II jild, T.: Qo‘lyozmalar instituti, 1991



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Avazova Dilfuza Ravshanovna – a doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: dilfuzaavazova2206@mail.ru

Phone: +998901202300



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES